Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaqulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investitsiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'рни.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	



XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA HISOB SIYOSATI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Qurbanboev Jurabek Eruvboevich

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
“Bank ishi va buxgalteriya hisobi” kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hisob siyosatining ahamiyati, uni tanlash, shakllantirish va qo'llash jarayonlari, hamda bu jarayonga ta'sir etuvchi omillar chuqur tahlil qilinadi. Mavjud talablar asosida hisob siyosatini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq shakllantirishning metodologik asoslari yoritiladi. Xususan, Buxgalteriya hisobi xalqaro standarti 8-son (BHXS 8) — “Hisob siyosati, hisob bahosidagi o'zgarishlar va xatolar” doirasida aktsiyadorlik jamiyatlari uchun hisob siyosatini optimallashtirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari suriladi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribasining mos jihatlari amaliyotimizga integratsiya qilishga oid ilmiy tavsiyalar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: hisob siyosati, hisob siyosatini tanlash, hisob bahosidagi o'zgarishlar, BHXS 8, xalqaro standartlar, buxgalteriya hisoboti.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the significance and necessity of accounting policies, including their selection, formulation, and implementation, along with the factors that influence these processes. The methodological framework for developing accounting policies in line with International Financial Reporting Standards (IFRS) is thoroughly examined. Special emphasis is placed on IFRS (IAS) 8 “Accounting Policies, Changes in Accounting Estimates and Errors,” offering practical recommendations for improving the accounting policy framework for joint-stock companies. The paper also includes scientific suggestions regarding the integration of applicable elements from foreign experience into domestic practice.

Key words: accounting policy, selection of accounting policy, changes in accounting estimates, IFRS 8, international standards, financial reporting.

Аннотация: В статье всесторонне анализируются значение и необходимость учетной политики, процессы ее выбора, формирования и применения, а также факторы, влияющие на эти процессы. Освещены методологические основы формирования учетной политики в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности. Особое внимание уделено МСФО (IAS) 8 «Учетная политика, изменения в бухгалтерских оценках и ошибки» с точки зрения разработки новой учетной политики для акционерных обществ. Также представлены научные предложения и рекомендации по применению релевантных аспектов зарубежного опыта в национальной практике.

Ключевые слова: учетная политика, выбор учетной политики, изменения в бухгалтерских оценках, МСФО 8, международные стандарты, финансовая отчетность.

KIRISH

Ma'lumki, respublikamizda buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish jarayoni jadallik bilan olib borilmoqda. Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan 1620 dan ortiq korxonalarda bugungi kunda o'z moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish va uni taqdim etish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu esa korxonalarda moliyaviy holati va daromad hamda xarajatlarini yanada yaxshilashga, xo'jalik faoliyatini qayta ko'rib chiqishga hamda rivojlanish uchun yangi imkoniyatlarni izlashga majbur qilmoqda.

Buxgalteriya hisobida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar natijasida, korxonalar tomonidan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tuzish va uni taqdim etishda yetarlicha ilmiy va amaliy metodologik asoslar bo'lishi talab etilmoqda. Bunda korxonalarda shakllantirilayotgan hisob siyosati muhim ahamiyat kasb etadi.



Respublikamizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning huquqiy asoslari yaratilgan bo'lib, undagi belgilangan me'yorlar va vazifalar to'liq amalga oshirib kelinmoqda. Birgina, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli¹ qarorida quyidagi jumla keltirib o'tilgan: "...buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXSga muvofiq uyg'unlashtirish." [1]

Prezident qarorida belgilab berilgan bu kabi mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishda, tegishli vazirliklarning soha mutaxassislari va oliy ta'lim muassasalarining yetuk professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishni talab etadi. Bugungi kunda buxgalteriya hisobi milliy standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish va uyg'unlashtirish jarayoni boshlangan va bu ishlar samarali davom etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, xorijiy tajribalarni o'rganish va ularning yutuqli tomonlarini amaliyotimizga joriy etishni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro standartlarga o'tish munosabati bilan so'nggi yillarda hisob siyosati, hisob siyosati uslubi, hisob siyosati amaliyoti kabi tushunchalar korxonalar amaliyotida qo'llanila boshlandi. O'z navbatida, hisob siyosatiga xalqaro va milliy darajadagi iqtisodchi olimlar va sohaning amaliyotchi mutaxassislari (auditorlar, buxgalterlar, tahlilchilar) tomonidan ko'plab ta'riflar hamda turli yondashuvlar berilgan. Ushbu ta'riflarning barchasida yagona bir maqsad mujassamlashtirishni ko'rish mumkin, ya'ni hisob siyosati buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishga qaratilgan qoidalar majmuasidan iborat. "Hisob siyosatlari, hisoblab chiqilgan baholardagi o'zgarishlar va xatolar" nomli 8-son BHHXSda quyidagi ta'rif shakllantirilgan: hisob siyosati – bu tashkilot tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlashda va taqdim etishda qo'llaniladigan muayyan tamoyillar, asoslar, umumqabul qilingan shartlar, qoidalar va amaliy yondashuvlardir [2].

Amaliyotimizda esa bunga biroz boshqaroq yondashilganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, milliy standartda: "...Hisob siyosati – tashkilot moliyaviy hisobotni tayyorlash va tuzish uchun foydalanadigan maxsus prinsiplari, konvensiyalari, tartib va amaliy yondashuvlarini ifodalaydi" deb ta'rif berilgan [3]. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, bir vaqtning o'zida buxgalteriya hisobi yuritilishi hamda hisob siyosati shakllantirilishiga xo'jalik subyekti rahbari mas'ul shaxs sifatida yondoshilgan. Hisob siyosatiga berilgan ta'riflar va uning mazmunini ifodalab beruvchi fikrlar masalasida xorijiy tajribaga murojaat etiladigan bo'lsa, hisob siyosati umumiy bir maqsadda xizmat qilishini ko'rish mumkin. Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida hisob siyosatiga quyidagicha yondashiladi: "...tashkilotning buxgalteriya siyosati – u tomonidan qabul qilingan buxgalteriya hisobi usullari to'plami – dastlabki kuzatish, xarajatlarni o'lchash, joriy guruhlash va xo'jalik jarayonlarini umumlashtirish tushuniladi. Buxgalteriya hisobini yuritish usullariga iqtisodiy faoliyatni guruhlash va baholash, aktivlar qiymatini to'lash, xo'jalik jarayonlari, inventarizatsiyani tashkil qilish, buxgalteriya hisobi schyotlar rejasini qo'llash, buxgalteriya registrlarini shakllantirish hamda ma'lumotni qayta ishlash va umumlashtirish kabi usullarni o'z ichiga oladi" [4].

MHXSni muvaffaqiyatli qo'llayotgan Hindiston tajribasiga e'tibor qaratamiz. Hindiston buxgalteriya hisobi standarti (Ind AS)da hisob siyosati va uni shakllantirish masalalari xalqaro standart (MHXS) talablariga to'liq muvofiqlashtirilgan. Masalan, hisob siyosatiga berilgan ta'rif bilan MHXSda berilgan ta'rif o'rtasida deyarli farqli jihatlar mavjud emas: "Hisob siyosati – bu moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishda subyekt tomonidan qo'llaniladigan o'ziga xos prinsiplar, asoslar, konvensiyalar, qoidalar va amaliyotlar" [5]. Mazkur standartda hisob siyosatini ochib berish bo'yicha talablar, bunday hisob siyosatidagi o'zgarishlarni ochib berishni istisno qilgan holda, Ind AS 1 "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish"da o'rnatilishi belgilangan.

Osiyoning yana bir yetakchi mamlakati Yaponiya buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq: "Hisob siyosati – bu kompaniya boshqarish uchun moliyaviy hisobotni tayyorlashda foydalanadigan o'ziga xos prinsiplar va protseduralardir. Bunga buxgalteriya hisobining har qanday usullari, baholash tizimlari va axborotni oshkor qilish tartib-qoidalar kiradi". Globallashtirish sharoitida Yaponiya Buxgalteriya Standartlari Kengashi (ASBJ) tomonidan 24-sonli "Hisob siyosatini yoritib berish, hisob siyosatidagi o'zgarishlar va xatolarni tuzatish" standarti qayta ko'rib chiqilganligi yuzasidan bayonot berilgan (mazkur bayonot faqat yapon tilida mavjud) [6].

AQShning hisob siyosatini ochib berishga qaratilgan tamoyillarida (APB 22): "Kompaniyalarning hisob siyosati – bu buxgalteriya hisobining umumqabul qilingan tamoyillariga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tuzishdagi buxgalteriya hisobining aniq tamoyillari va usullari bo'lib, bu kompaniyalarni boshqaruvida moliyaviy holat to'g'risida, pul mablag'larining harakati va moliyaviy natijalar bo'yicha ishonchli ma'lumotlarni taqdim etishga qaratiladi".

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-4746047>



Respublikamizda buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiqlashtirishda iqtisodchi olimlar tomonidan hisob siyosatini tuzish va takomillashtirishda quyidagicha ta'riflar va yondashuvlar berilgan:

A.A. Karimovning fikriga ko'ra: "Hisob siyosati – korxona tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishda qo'llaniladigan muayyan tamoyillar, asoslar, qoidalar va amaliy yondashuvlardir" [7].

A.K. Ibragimov tomonidan quyidagi fikrlar bildirilgan: "Hisob siyosati – bu bank tomonidan operatsiyalarni aks ettirish, nazoratni ta'minlash hamda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish uchun qabul qilingan aniq bir tamoyillar, asoslar, shartlar, qoidalar va amaliyotlardir" [8].

Olib borilgan tadqiqotlarda hisob siyosatiga quyidagicha ta'rif shakllantirilgan edi: "Hisob siyosati – bu buxgalteriya hisobini tashkil qilish, yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish va topshirish uchun muqobil tamoyillar, shart va qoidalarga asoslanib, xo'jalik yurituvchi subyekt rahbari tomonidan qabul qilingan maqbul usullar va qoidalar majmuasi tushuniladi" [9].

Pardaev A.X tomonidan berilgan izohda esa: "Korxona hisob siyosati – bu korxonaning o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan va umumiy qoidalardan kelib chiqqan holda belgilanadigan va e'lon qilinadigan buxgalteriya hisobining shakl va uslublari to'plamidir" [10].

N.Yu. Jo'rayev esa: "Hisob siyosati – bu xo'jalik subyektlari faoliyatini tartibga soluvchi qonuniy–me'yoriy hujjatlarda ruxsat etilgan buxgalteriya hisobining muqobil usullari va shakllaridan korxona tanlab olgan hamda e'lon qilgan buxgalteriya hisobi tizimidir" [10].

B.A. Hoshimov xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisob siyosatini buxgalteriya hisobini ma'lum qoidalar va tamoyillar bo'yicha quyidagicha asoslagan: "Tamoyil va qoidalarining shunday majmuini o'rnatish kerakki, uni amalda qo'llash hisob yuritishning maksimal samaradorligini ta'minlashi kerak" [11].

K.B. Urazov tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan va 1-son BHHMSga kiritishni maqsadga muvofiq deb bilgan holda: "Hisob siyosati deganda xo'jalik yurituvchi subyekt rahbari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishning tanlangan aniq qonuniy usullarini o'zida mujassamlashtiruvchi va foydalanuvchilarning axborot olish talablarini to'liq qondirishga xizmat qiluvchi ichki me'yoriy hujjat tushuniladi" [12].

Hisob siyosatini shakllantirishda ilmiy izlanishlar olib borgan yana bir iqtisodchi olim B. Jo'rayev tomonidan quyidagi ta'rif shakllantirilgan: "Hisob siyosati – xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va moliyaviy hamda boshqa hisobotlarni tuzishning huquqiy-me'yoriy hujjatlar bilan tasdiqlangan muqobil variantlaridan maqbulini tanlab shakllantirilgan, o'zaro uzviy aloqador tamoyillar, talablar, shakllar, usullar va vositalar tizimidan iborat ichki tartibga soluvchi hujjatdir" [13].

Demak, hisob siyosati – bu tadbirkorlik subyekti tomonidan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda va taqdim etishda qo'llaniladigan muayyan tamoyillar, usullar, odatlar, qoidalar va amaliyotlardan iborat majmuadir. Hisob siyosatiga berilgan umumiy xulosalarga kelish mumkinki, hisob siyosati – bu korxonalar tomonidan moliyaviy hisobotlarni tuzish, tayyorlash va taqdim etish bo'yicha ko'rsatmalar va tartiblarni o'zida ifodalab, korxonaning moliyaviy holatining aniq tasvirini beradi. Biroq bizning fikrimizcha, ushbu olimlarning ishlarida hisob siyosatiga berilgan yondashuvlar, hisob siyosatini shakllantirish masalalari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga asoslanmagan. Natijada, bugungi kun talabi hisob siyosatini xalqaro standartlar qoidalari bo'yicha shakllantirishga katta e'tibor qaratishni talab etmoqda, yuqorida keltirilgan iqtisodchi olimlarning ishlari esa ushbu ishga nazariy jihatdan katta xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani yozish davomida mantiqiy fikrlash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, monografik kuzatuv, statistika, iqtisodiy tahlil hamda iqtisodiy-matematik tahlil usullaridan, shuningdek, hisob siyosatini shakllantirishda buxgalteriya hisobining usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, respublikamizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, ushbu ishlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli² qarori asos bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekistonda buxgalteriya hisobi islohotlarining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagi uslubiyotlar olinadi:

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish;
- auditning xalqaro standartlariga o'tish;

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-4746047>



- buxgalteriya hisobi milliy standartlarini takomillashtirish.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, buxgalteriya hisobining milliy standartlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish hamda uni metodologik jihatdan takomillashtirish masalalariga to'xtalib o'tiladi.

Bugungi kunda respublikamizda 1998-yildan boshlab qabul qilingan jami 25 ta buxgalteriya hisobi milliy standartlaridan (BHMS) 4 tasi xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilgan, jumladan:

1-sonli BHMS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati" (2024-yil 6-avgust, №3544);

5-sonli BHMS "Asosiy vositalar" (2024-yil 9-avgust, №3546);

22-sonli BHMS "Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi" (2024-yil 19-dekabr, №3587);

4-, 5-, 7-sonli BHMSlarga 22-sonli BHMSdan kelib chiqib o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi (2025-yil 11-fevral, №3607).

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, buxgalteriya hisobi milliy standartlari, jumladan hisob siyosati bo'yicha standartni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish uchun quyidagi omillar sabab bo'lgan:

Birinchi, hisob siyosati bo'yicha milliy standart uzoq yillar davomida konseptual jihatdan o'zgartirilmay qolganligi, shuningdek, zamonaviy biznes turlari va jarayonlarining rivojlanishi oqibatida korxonalarda shakllantirib kelinayotgan hisob siyosati uslubiy jihatdan talabga javob bermay qolgan.

Ikkinchi, potensial foydalanuvchilar talablariga asoslangan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashga o'tilishi munosabati bilan hisob siyosatida belgilangan qoida va tamoyillar moliyaviy hisobotlarni tuzish hamda olinadigan axborotlarning ishonchli va to'liq bo'lishiga kafolat bera olmay qolgan.

Uchinchi, respublikamizda yangi tahrirdagi Soliq kodeksining ishlab chiqilishi munosabati bilan moliyaviy instrumentlar, transfor narxlar va rezervlarning yaratilishi, shuningdek, amortizatsiya bo'yicha yangi normalar kabi mexanizmlar joriy etilgan. Natijada, korxonaning hisob siyosatida ushbu yangi qoidalar hisobini yuritish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar yetarli bo'lmagan.

To'rtinchi, o'tgan yillar davomida tadbirkorlik subyektlarining barcha qatlamlari, jumladan kichik, o'rta va yirik korxonalar uchun yagona hisob siyosatini shakllantirish talabi qo'yilgan. Bunday talab yirik korxonalar, xususan, aksiyadorlik jamiyatlari va yirik soliq to'lovchilar uchun qulay bo'lishi mumkin, biroq kichik va o'rta korxonalar uchun buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishga qaratilgan yaxlit hisob siyosati mavjud emas.

Beshinchi, hisob siyosatining uslubiy qoidalarini o'zida to'liq mujassamlashtirgan va yagona tizimlashtirilgan milliy standart mavjud bo'lmagan. Amalga joriy etilgan standart esa faqat moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish maqsadida yaratilgan hujjatning bir qismi sifatida qo'llanib kelgan.

Oltinchi, korxonalarda hisob siyosatiga bo'lgan yondashuv "faqat shu bo'lishi kerak" degan tushuncha asosida shakllanib qolgan. Aslida esa hisob siyosatining mohiyati, uning zarurati va ahamiyati to'g'risidagi qarashlar ikkinchi darajaga tushib qolgan edi.

Demak, ushbu omillar tufayli, hisob siyosati qoidalari va uni shakllantirish uslubiyotini xalqaro standartlar talablariga asosan konseptual jihatdan qayta ko'rib chiqish zaruratga aylandi.

Korxonalar uchun muhim bo'lgan milliy standartlardan biri bu 1-sonli BHMS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati" nomli standart hisoblanadi. Ushbu milliy standart "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunga asosan ishlab chiqilgan bo'lib, buxgalteriya hisobini me'yoriy tartibga solish elementi sifatida qoraladi. Shuningdek, standart byudjet, sug'urta tashkilotlari, banklar va nobank kredit tashkilotlari hamda mulkchilik shaklidan qat'i nazar faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslarning oldingi hisobot davrlaridagi moliyaviy hisobotlari va ularni qiyoslanishini ta'minlash maqsadida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va tuzish uchun asos bo'ladi.

Mazkur BHMSda hisob siyosatiga quyidagicha ta'rif berilgan, jumladan: "Tashkilotning rahbari buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish uchun qo'llaydigan usullari, ularning prinsip va asoslari bilan birgalikdagi jamlamasi tushuniladi." Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, hisob siyosatining maqsadi yagona bo'lib, u ham bo'lsa, to'g'ri buxgalteriya hisobini yuritish asosida potensial foydalanuvchilar uchun ishonchli bo'lgan moliyaviy hisobotlarni tuzishga qaratilgan.

Xalqaro standart (8-son BHHXS)da esa, hisob siyosatini tuzish maqsadiga quyidagicha yondashiladi: "Hisob siyosatidagi o'zgarishlarni, hisob baholaridagi o'zgarishlarni va xatolarni tuzatishni hisobga olish tartibi va yoritib berish bilan birgalikda, hisob siyosatini tanlash va o'zgartirish mezonlarini belgilashdan iboratdir. Mazkur standart tashkilot moliyaviy hisobotining o'rinliligi va ishonchligini hamda oldingi hisobot davrlarining va boshqa tashkilotlarning moliyaviy hisobotlari bilan qiyoslanuvchanligini oshirishga qaratilgan." Xalqaro standartda berilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, hisob siyosatini shakllantirishda hisob bahosidagi o'zgarishlar va xatolarni tuzatish jarayoni o'z ichiga olinadi. Lekin xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirilgan 1-sonli BHMSda bunday tartib mavjud emas.

Hisob siyosati bo'yicha xalqaro va milliy standartlarni taqqoslaydigan bo'lsak, ular o'rtasida farqli jihatlar va o'zaro bog'liq tomonlarini ko'rish mumkin. Masalan, har ikkala standart nomlanishining o'zidayoq birinchi farqli jihatlar ko'zga tashlanadi:



1-jadval. Xalqaro va milliy buxgalteriya standartlarining nomlanishi bo'yicha taqqoslanishi.

Xalqaro standartning nomlanishi	Milliy standartning nomlanishi
8-son BHXS Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar	1-son BHMS Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati

Fikrimizcha, hisob siyosatini buxgalteriya hisobi milliy standarti – 1-son BHMS tarkibidan chiqarib, alohida milliy standart ko'rinishida ifodalash maqsadga muvofiq. Ya'ni bu yerda 1-son BHMS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" nomi bilan ifodalanishi va 18-son BHMS "Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar" deb nomlanishi lozim. Bu yerda 18-sonli BHMS standartlarining ketma-ketlikdagi tartib raqamlari bo'yicha bo'sh turgan raqamga kiritilishi taklif etilmoqda. Natijada, hisob siyosati bo'yicha me'yoriy hujjat – ya'ni milliy standartni alohida standart sifatida tan olish va uning tartib-qoidalarini xalqaroga to'liq muvofiqlashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Chunki amaldagi 1-son BHMSning tarkibiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning asosiy qismi moliyaviy hisobotni tuzish, uning elementlari va qoidalar, taqdim etish hamda moliyaviy hisobotlarda yoritib berilishi mumkin bo'lgan axborotlarga qaratilgan bo'lib, hisob siyosatini to'liq ochib berish imkoniyatiga ega emas.

Har ikkala standartni qo'llash doirasiga to'xtaladigan bo'lsak, quyidagi tushunchalarni ko'rish mumkin:

2-jadval. Hisob siyosati bo'yicha MHXS va BHMSda qo'llash doiralarining taqqoslanishi.

MHXS bo'yicha	BHMS bo'yicha
qo'llash doirasi:	
Mazkur standart hisob siyosatini tanlash va qo'llashda, shuningdek hisob siyosatidagi o'zgarishlarni, hisob baholaridagi o'zgarishlarni va o'tgan davr xatolarini tuzatishni hisobga olishda qo'llanishi lozim.	Tashkilotning hisob siyosati tashkilot rahbari tomonidan mazkur BHMS asosida tashkilot faoliyatining turli yillar uchun tuzilgan moliyaviy hisobotda keltiriladigan moliyaviy ko'rsatkichlari bir-biriga qiyoslanadigan bo'lishi uchun shakllantiriladi.

Ko'rinib turibdiki, xalqaro standartda izchil hisob siyosatini tanlash, undagi o'zgarishlar va o'tgan davrlarga tegishli xatolarni tuzatish maqsad qilingan. Bizda esa, asosan moliyaviy hisobotlarni tuzish va ularni taqqoslash imkonini beradigan axborotlarni shakllantirishga qaratilgan. To'g'ri, har qanday hisob siyosati yakuni ishonchli bo'lgan moliyaviy hisobotlarni tuzish maqsadida ishlab chiqiladi, lekin hisob siyosati hisobot davri davomida o'zgarishi va unda yuzaga kelgan turli xatolarni tuzatishni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, amaldagi 1-son BHMSning hisob siyosatiga mos shakllantirilgan qo'llash doirasini quyidagi jumla bilan to'ldirish kerak, deb hisoblaymiz:

"Ushbu standart tashkilotning hisob siyosati – uning turli yillar uchun tuzilgan moliyaviy hisobotda keltiriladigan moliyaviy ko'rsatkichlarini bir-biriga qiyoslanadigan bo'lishi, undagi o'zgarishlar hamda xatolarni tuzatishda qo'llanilishi kerak."

3-jadval. MHXS va BHMSda hisob siyosatining qo'llash maqsadi bo'yicha taqqoslanishi.

MHXSning	BHMSning
Maqsadi:	
Mazkur standart hisob siyosatini tanlash va qo'llashda, shuningdek hisob siyosatidagi o'zgarishlarni, hisob baholaridagi o'zgarishlarni va o'tgan davr xatolarini tuzatishni hisobga olishda qo'llanishi lozim.	Ushbu standart tashkilotning hisob siyosati - uning turli yillar uchun tuzilgan moliyaviy hisobotda keltiriladigan moliyaviy ko'rsatkichlarini bir-biriga qiyoslanadigan bo'lishi, undagi o'zgarishlar hamda xatolarni tuzatishda qo'llanilishi kerak.



Biz tomonimizdan berilgan ushbu yondashuv esa, hisob siyosati bo'yicha xalqaro va milliy standart qoidalarini uyg'unlashuvi va o'zaro bog'liqligini ta'minlashga xizmat qiladi. Xalqaro standartlardan farqli o'laroq, milliy standartda qo'llaniladigan atama va ta'riflar uchun alohida bandlar ko'rsatilmagan. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, milliy standart asosan moliyaviy hisobotlarni shakllantirish masalalariga qaratilganligi sababli, hisob siyosatini yaxlit ko'rinishda ochib bera olmagan.

Fikrimizcha, hisob siyosatini alohida standart ko'rinishida ifodalab, unda qo'llaniladigan atamalar va tushunchalarni alohida bandlar ko'rinishida berilishi lozim. Masalan, xalqaro standartda (8-son BHHXS) atamalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- hisob siyosati;
- hisob bahosidagi o'zgarish;
- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari;
- muhimlik;
- o'tgan davr xatolari;
- retrospektiv qo'llash;
- retrospektiv qayta hisoblash;
- amaliy imkonsizlik;
- perspektiv qo'llash.

Taklif etilayotgan milliy standartda quyidagi atamalardan foydalanilishi o'z ifodasini topishi lozim:

Hisob siyosati – bu tashkilot tomonidan moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishda qo'llaniladigan muayyan tamoyillar, asoslar, umumqabul qilingan shartlar, qoidalar va amaliy yondashuvlar jamlamasidir.

Hisob bahosidagi o'zgarish – tashkilotning aktivlari, xususiy kapitali va majburiyatlarining joriy holatini hamda ular bilan bog'liq bo'lgan kelgusi naf va javobgarliklarni baholash natijasida ularning balans qiymatini tuzatishdir.

O'tgan davr xatolari – tashkilotning bir yoki undan ortiq o'tgan davrlar uchun moliyaviy hisobotidagi tushirib qoldirishlar va noto'g'ri ko'rsatishlardir.

Retrospektiv qo'llash – yangi hisob siyosatini operatsiyalar, boshqa iqtisodiy hodisalar va holatlarga nisbatan ushbu hisob siyosatini har doimgidek qo'llashdir.

Hisob siyosatini shakllantirishdagi yana bir muhim masala – bu hisob siyosatini tanlash va uning izchilligidir. Bizning milliy standartda bunday bandlar mavjud emas. Ya'ni hisob siyosati qanday tanlanadi va uning izchilligiga qanday erishish mumkinligi ko'rsatilmagan.

Tashkilotda hisob siyosatini tanlash va uni qo'llash masalasi muhim bo'lib, bu tashkilotda hisobot davri davomida buxgalteriya hisobining to'liq va aniq yuritilishini, hamda foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotning ishonchiligidini ta'minlashga xizmat qiladi. Xalqaro standartda (8-son BHHXS, 7-band) hisob siyosatini tanlash va uni qo'llashda quyidagi yondashuvlar keltirib o'tiladi: "Muayyan operatsiyaga, boshqa hodisa yoki holatga nisbatan ma'lum bir MHXS qo'llansa, hisobning bunday obyektiga nisbatan qo'llaniladigan hisob siyosati yoki uning qoidalari ushbu MHXSni qo'llagan holda belgilanishi lozim".

Olib borilgan tadqiqotlarda shu narsa ma'lumki, xalqaro standartda operatsiyalar, boshqa hodisalar va holatlarga nisbatan uning qo'llanishi o'rinli va ishonchli ma'lumotni o'z ichiga oladigan moliyaviy hisobot shakllanishiga olib keladigan hisob siyosatini belgilab beradi. Ushbu hisob siyosatini qo'llash ta'siri muhim bo'lmagan hollarda, uni qo'llash talab etilmaydi, deb keltirib o'tilgan. Tan olish lozim, amaldagi milliy standart qoidalarida bu kabi alohida moddalar bayoni keltirib o'tilmagan.

Demak, BHMS tarkibida ham hisob siyosatini tanlash bo'yicha xalqaro tajribani qo'llash talab etiladi.

Hisob siyosatining izchilligi haqida 8-son BHHXSning 13-bandida quyidagi tushunchalar berib o'tilgan: "Agar muayyan MHXSda turli hisob siyosati o'rinli bo'lishi mumkin bo'lgan moddalarni toifalarga ajratish alohida talab etilmasa yoki ruxsat berilmasa, tashkilot o'xshash operatsiyalar, boshqa hodisalar va holatlar uchun hisob siyosatini tanlashi va izchil qo'llashi lozim. Agar muayyan MHXSda moddalarni bunday toifalarga ajratish talab etilsa yoki ruxsat berilsa, har bir toifaga hisob siyosati tanlanishi va izchil qo'llanilishi lozim."

Demak, soddaroq qilib ta'riflaydigan bo'lsak, "izchil hisob siyosati – bu bir me'yorda va tanlangan aniq bir maqsadli yo'nalishda tashkilotning buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda o'zaro mantiqiy va uzviy bog'liqlikdagi jarayondir".

Fikrimizcha, xalqaro standartdagi berilgan tushuncha milliy standartlarda to'liq o'z ifodasini topishi lozim. Tashkilot hisob siyosatidagi o'zgarishlar bo'yicha ham xalqaro va milliy standartlar o'rtasida farqli jihatlar ko'zga tashlanadi.



4-jadval. MHXS va BHMSda hisob siyosatidagi o'zgarishlarga yondashuvning taqqoslanishi.

MHXS bo'yicha	BHMS bo'yicha
Hisob siyosatidagi o'zgarishlar:	
Tashkilot hisob siyosatini faqat quyidagi hollarda o'zgartirishi lozim: - muayyan MHXS tomonidan talab etilsa; - hisob siyosatini o'zgartirish moliyaviy hisobotda operatsiyalarning, boshqa hodisalarning va holatlarning tashkilot moliyaviy holatiga, moliyaviy natijalariga yoki pul oqimlariga ta'siri to'g'risida ishonchli va yanada o'rinni ma'lumotlar aks ettirilishiga olib kelsa.	Tashkilotning hisob siyosatini quyidagi hollarda o'zgartirishi mumkin: - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida yoki buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda o'zgarishlar bo'lganda; - tashkilot qayta tashkil etilganda (qo'shib yuborilganda, bo'linganda, qo'shib olinganda); - mulk egalari almashganda; - buxgalteriya hisobining yangi usullari ishlab chiqilganda; - o'zgartirishlar tashkilotning moliyaviy hisobotlarida axborotni yanada ishonchliroq taqdim etishga ko'maklashganda.

Fikrimizcha, BHMSda keltirib o'tilgan hisob siyosatining o'zgarishi bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida yoki buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda o'zgarishlar bo'lganida" jumlasini "buxgalteriya hisobining yangi usullari ishlab chiqilganda" jumlasini ham o'z ichiga oladi. Buxgalteriya hisobida ishlab chiqilgan yangi usullar esa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi. Shu sababli, uni alohida band sifatida keltirib o'tish zarur emas, deb hisoblaymiz.

Shuningdek, bu yerda tashkilotning qayta tashkil etilishi (qo'shib yuborilgan, bo'lingan, qo'shib olingan) yoki mulk egalari almashishi hisob siyosatiga ta'sir etmasligi lozim. Xalqaro standartda bunday holatlar nazarda tutilmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, hisob siyosatini shakllantirishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida, xalqaro va milliy standartlarni chuqur tahlil etgan holda, tashkilot hisob siyosati uchun O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (18-sonli BHMS) "Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar" nomli buxgalteriya hisobi milliy standartining loyihasi ishlab chiqildi va uslubiy jihatdan qo'llash uchun taklif etildi.

Taklif etilayotgan yangi milliy standart tashkilot uchun hisob siyosatini uslubiy jihatdan yanada to'liq va aniq shakllantirish imkoniyatini beradi. To'g'ri, bir qarashda aynan hisob siyosatini alohida standart ko'rinishida shakllantirish tashkilot yoki korxona uchun qanday zaruriy ahamiyatga ega, deyish mumkin. Har qanday hisob siyosati o'z nomi bilan, u standart ko'rinishidami yoki nizom ko'rinishidami, qanday bo'lmasin, eng muhimi – korxonada buxgalteriya hisobini tashkil etish va uni yuritilishi hamda foydalanuvchilar uchun ishonchli axborotlarni ta'minlashga xizmat qilishi lozim.

Yangi taklif etilgan milliy standart loyihasi bo'yicha xalqaro standart qoidalarini o'zaro taqqoslash asosida quyidagi ilmiy xulosalarga to'xtalib o'tildi:

Birinchidan, standartlar bir xil nomga ega, bu esa ularning uslubiy jihatdan o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi, shuningdek, tarkibiy tuzilishi deyarli bir-biriga yaqin tushunchalar va qoidalaridan iborat.

Ikkinchidan, milliy standartda ilk bora, xalqaroga muvofiq tashkilot hisob siyosatini tanlash va uning izchilligi bayon etilgan bo'lib, natijada ilgari mavhum bo'lib qolgan standartni tanlash uslubiy jihatdan keng ochib berildi.

Uchinchidan, milliy standartda, xalqaroga muvofiq ravishda, retrospektiv qo'llash masalasi ham alohida bob sifatida keltirildi. Bu esa tashkilotda yangi hisob siyosatini turli operatsiyalar, iqtisodiy hodisalar va voqeiklarga nisbatan qo'llashda, ushbu hisob siyosatini har doim qo'llangandek tatbiq etish imkoniyatini beradi.

To'rtinchidan, milliy standartda moliyaviy hisobotlarni tuzish maqsadida ishlab chiqilgan hisob siyosatini yoritib berish ko'zda tutilgan. Xalqaro standartda esa hisob siyosatining muhim qoidalari bo'yicha alohida ma'lumotlarni yoritib berish nazarda tutiladi.

Beshinchidan, hisob siyosatini alohida ko'rinishdagi ushbu yangi standart amaldagi moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish bo'yicha milliy standartdan mustaqil ravishda ishlab chiqilgan. Natijada, bu ma'lum bir standartning tarkibiy qismi emas, balki metodologik jihatdan mustaqil bo'lgan standart ko'rinishida ifodalanadi. Bu esa xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish imkoniyatini beradi.

Demak, tashkilotda izchil va samarali hisob siyosatini ishlab chiqish, uning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, kelgusida korxonalarda buxgalteriya hisobining to'g'ri yuritilishiga hamda manfaatdor tomonlarni ishonchli axborotlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi. O'z navbatida, integratsiyalashgan hisobotlarning muhim



tarkibiy qismi sifatida, korxonalarni baholash va ularning kelgusi strategiyasini ishlab chiqishda, shuningdek, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir). O'RQ-404. 13.04.2016 y. <https://lex.uz/docs/2931253>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4611-sonli qarori. 2020-yil 24-fevral. (3-band) <https://lex.uz/docs/4746047>
3. 8-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar. Rasmiy tarjima. 2022-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (1-sonli BHMS) "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati"ni tasdiqlash haqida [O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 6-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3544].
5. Положение по бухгалтерскому учету «Учетная политика организации» (ПБУ 1/2008). Приложение №1 к Приказу Минфина РФ от 06.10.2008 № 106н. http://www.consultant.ru/document/cons_doc_law_164/2d52/
6. Indian Accounting Standard (Ind AS) 8. Accounting Policies, Changes in Accounting Estimates and Errors. <http://www.mca.gov.in/Ministry/IndAS8>
7. Accounting Standards Board of Japan (ASBJ). Japanese Generally Accepted Accounting Principles (JGAAP). Accounting Standard for Accounting Policy Disclosures. www.asb.or.jp/en/jp-gaap/accounting_standards/y2020/html
8. Karimov A., Qurbonboev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019.
9. Ibragimov A.K. Tijorat banklarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019.
10. Qurbonboev J.E. Korxonalarda hisob siyosatini shakllantirish, yuritish va rivojlantirish istiqbollari. I.f.n., avtoref. – T., 2005. 18 b.
11. Pardaev A.X. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: 2002-yil
12. Jo'rayev N.Yu. Buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. – T.: 1998.
13. Hoshimov B. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: 2004-yil.
14. Urazov K.B. "Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari". Monografiya. – T.: 2005. 151–152-bet.
15. Jo'rayev B.M. Qishloq xo'jaligi korxonalarida hisob siyosatini takomillashtirish. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2011. 21 b.
16. Rizaev N.K. Issues of adjusting national standards in compliance with international standards in Uzbekistan (Evidence from accounting policy). Ilmiy tadqiqot va innovatsiya, 2022, 1(1), 94–104. Retrieved from <http://ilmiytadqiqot.uz/index.php/iti/article/view/14>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
